

Vapayev Karimboy Muzaffar o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakultetining 2-kurs talabasi

E-mail: vapayevkarimboy@gmail.com

JINOYAT QONUNCHILIGIDA JINOIY JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISHNING AYRIM MASALALARI

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilgan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tushunchasi va ushbu institutning mohiyati, javobgarlikdan ozod qilishning turlari va ahamiyati har tomonlama tahlil qilingan. Ushbu maqolaning dolzarbligi jinoiy jazolar tizimida insonparvarlik tamoiilini yanada mustahkamlash maqsadida javobgarlikdan ozod qilish institutini yanada rivojlantirish va liberallashtirish asoslari mavjudligidir. Shuningdek, jinoiy javobgarlikka tortish muddatining o'tganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilishning muhim masalalari, Gruziya va Armaniston Respublikalari Jinoyat qonunchiligida jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik jihatdan nomlanishi va javobgarlik muddatlari qiyosiy tahlil qilinib, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish bo'yicha bir qancha xorijiy davlatlarda mavjud ijobiy amaliyot o'rganilgan. Maqolada xorijiy va milliy olimlarning fikrlaridan, tadqiqot natijalaridan, mavzuga doir dissertatsiya va ilmiy ishlardan, xorijiy mamlakatlarning qonunchilik hujjatlaridan maqsadli foydalanilgan va tizimli havolalar berilgan.

Kalit so'zlar: Jinoyat, jinoiy javobgarlik, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, ijtimoiy xavfli qilmish, javobgarlikka tortish muddati, jazo chorasi, jinoyat tarkibi, bir qancha jinoyat, sudlanganlik, yarashuv, amnistiya, kafillik.

ANNOTATION: In this article, the concept of exemption from criminal liability of persons who committed a socially dangerous act and the nature of this institution, types and importance of exemption from liability are comprehensively analyzed. The relevance of this article is that there are grounds for further development and liberalization of the institution of exemption from responsibility in order to further strengthen the principle of humanity in the system of criminal punishments. Also, the important issues of release from responsibility due to the expiration of the term of criminal responsibility, the naming of crimes in terms of social danger in the criminal legislation of the Republic of Georgia and Armenia and the comparative analysis of the terms of responsibility, the positive practice of several foreign countries regarding the release from criminal responsibility. studied. In the article, the opinions of foreign and national scientists, research results, dissertations and scientific works on the topic, legal documents of foreign countries are purposefully used and systematic references are given.

Key words: Crime, criminal responsibility, exemption from criminal responsibility, socially dangerous act, term of responsibility, punishment, composition of crime, several crimes, conviction, reconciliation, amnesty, surety.

АННОТАЦИЯ: В данной статье всесторонне анализируется понятие освобождения от уголовной ответственности лиц, совершивших общественно опасное деяние, а также сущность этого института, виды и значение освобождения от ответственности. Актуальность данной статьи заключается в том, что имеются основания для дальнейшего развития и либерализации института освобождения от ответственности в целях дальнейшего укрепления принципа гуманности в системе уголовных наказаний. Также рассмотрены важные вопросы освобождения от ответственности в связи с истечением срока уголовной ответственности, наименования преступлений по признаку общественной опасности в уголовном законодательстве Республики Грузия и Армении и сравнительного анализа условий ответственности, изучена положительная практика ряда зарубежных стран по освобождению от уголовной ответственности. В статье целенаправленно использованы мнения зарубежных и отечественных ученых, результаты

исследований, диссертаций и научных работ по теме, нормативно-правовые документы зарубежных стран и даны систематические ссылки.

Ключевые слова: Преступление, уголовная ответственность, освобождение от уголовной ответственности, общественно опасное деяние, срок ответственности, наказание, состав преступления, несколько преступлений, осуждение, примирение, амнистия, поручительство.

So‘ngi yillarda mamlakatimiz jinoyat qonunchiligida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish instutidan samarali foydalanish, shaxsni jinoiy javobgar qilmasdan jabrlanuvchi huquqlarini tiklash orqali jinoyatchilik darjasini kamaytirish, jamiyat a‘zolari o‘rtasida o‘zaro ahillik munosabatlarini saqlab qolishga qaratilgan o‘zgartirishlar kiritilmoqda.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish vakolatli davlat organining sudlov yoki ayblovni bekor qilish, shuningdek, jinoyat sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxsga nisbatan davlat majburlov chorasini qo‘llashni bekor qilish haqidagi aktidir [1].

X.R.Ochilov jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tushunchasiga shaxs sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishida aybdorlik masalasi hal qilinmasdan turib, uning barcha huquqiy oqibatlaridan uni ozod qilish deb ta’rif berib o‘tgan. Ya’ni

- Sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishi uchun jinoyat kodeksi asosida javob berish majburiyatidan;
- Uning harakatlari davlat tomonidan salbiy baholanishidan;
- Aybdorga jinoiy huquqiy ta’sir choralari qo‘llanilishidan;
- Sudlanganlik holatining yuzaga kelishidan [2].

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 5-bo‘limi [3] “Javobgarlikdan va Jazodan ozod qilish” deb nomlanib, ushbu bo‘limning “Javobgarlikdan ozod qilish turlari” ga bag‘ishlanadigan XII bobi o‘zida 6 ta moddani qamrob oladi. Bular:

1. Javobgarlikka tortish muddatining o‘tib ketganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish (64-modda);
2. Qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo‘qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish (65-modda);
3. Aybdor o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish (66-modda);
4. Yarashilganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish (66-1-modda);
5. Kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish (67-modda);
6. Amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish (68-modda).

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun asoslar, shaxs muayyan ijtimoiy xavfli va jinoiy jazoga sazovor qilmishni sodir etishda aybdor bo‘lganda vujudga keladi. Bu jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning obyektiv asosidir.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning subyektiv asosi – jinoyatni sodir etishda aybdor shaxs jamiyat uchun xavfliligini yo‘qotadi yoki uning jamoat uchun xavflilik darajasi pasayadi.

O.N.Chuprova xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligini tahlil qilgan holda javobgarlikdan ozod qilishning maxsus asoslarini qilmishiga amalda pushaymon bo‘lishning turli ko‘rinishlari (o‘z ixtiyori bilan aybini bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilish, jinoyatni ochishga faol yordam berish, jinoyat tufayli yetkazilgan zararni qoplash va h.k.) munosabati bilan qo‘llanilishini ta’kidlagan [4]. Umuman olganda, ushbu fikr mantiqan to‘g‘ri, chunki nafaqat maxsus asoslar, balki jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning umumiy

asoslari ham odatda (muddat o'tganligi, kasallik va amnistiyadan tashqari) chin ko'ngildan pushaymon bo'lish, jinoyatni fosh qilishga faol ko'maklashish, zararni bartaraf qilish kabi asoslar bilan qo'llaniladi.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tushunchasi va turlariga to'xtalishdan oldin jinoiy javobgarlik tushunchasini tahlil qilishimiz lozim. Jinoyat kodeksining 16-moddasida ushbu tushunchaga quyidagicha ta'rif berilgan. Jinoyat uchun javobgarlik – jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan sud tomonidan hukm qilish, jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishida ifodalaniladigan jinoyat sodir etishning huquqiy oqibatidir.

Sud tomonidan hukm qilish orqali tayinlanadigan:

- Jazo chorasi – Jinoyat kodeksi 43-moddasida nazarda tutilgan jazo turlaridan biri
- Boshqa huquqiy ta'sir chorasi – tibbiy yo'sindagi va voyaga yetmaganlarga nisbatan tarbiya yo'sindagi majburlov choralari

Ushbu kodeksda nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo'lgan qilmishni sodir etish javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi. Ya'ni bu vaziyatda sodir etilgan qilmishda jinoyat tarkibining obyektiv va subyektiv belgilarining bir vaqtda mavjud bo'lishi tushuniladi.

M.X.Rustamboyev jinoiy javobgarlik tushunchasiga - jinoyat sodir etgan shaxsning belgilangan tartibga ko'ra, huquqlari cheklanishi, davlat nomidan sudlangan bo'lishi va jazo hamda boshqa huquqiy ta'sir choralari o'tashga bo'lgan majburiyatidir. Ushbu ta'rifdan shuni anglash mumkinki, shaxs jinoiy javobgarlikka tortiladigan bo'lsa uning muayyan huquqlari cheklanadi va jazo choralari o'tash majburiyati vujudga keladi [5].

Endi bevosita jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, V.Sverchkov fikricha, "Jinoiy javobgarlik – shaxsning subyektiv (ichki) idrok qilish, huquqiy asos bo'lsa, tasdiqlash yoki qoralash bilan psixologik yoki obyektiv (tashqi, ijtimoiy) ta'sir qilish qobiliyatidir. Ijobiy jihati bilan jinoyat qonunida nazarda tutilgan shaxsning xatti-harakati jamiyat tomonidan tasdiqlanadi"[6]. Ushbu fikrdan kelib chiqadigan bo'lsak, jinoiy javobgarlik mavjud ekan undan ozod qilish asoslari ham mavjud bo'ladi.

M.X.Rustambayev ushbu tushunchaga jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiruvchi idoralarning davlat nomidan jinoyat kodeksida ko'rsatilgan bir qator holatlar sababli keyinchalik o'zining oldingi ijtimoiy xavfliligini yo'qotgan jinoyatni sodir etgan shaxsni ayblashdan bosh tortishi deb ta'rif bergan. Javobgarlikdan ozod qilishda shaxsni huquqiy ma'noda jinoyatni sodir etgan deb hisoblanmaydi. Chunki bu holatda ayblov hukmi yo'q va sudlanganlik kelib chiqmaydi.

Javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish :

Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab ikki yil, uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab to'rt yil, og'ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab sakkiz yil, o'ta og'ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab o'n to'rt yil o'tib ketgan bo'lsa shaxs javobgarlikdan ozod qilinadi.

Sodir etilgan jinoyati uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlash nazarda tutilgan bo'lsa muddat sud tomonidan hal qilinadi, yigirma besh yil o'tib ketgan bo'lsada, sud ushbu holatda javobgarlikka tortish muddatini qo'llashni lozim topmasa, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'rniga ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlaydi va ushbu jazo turi ijro etiladi.

Bir qancha jinoyat sodir etilgan bo'lsa muddat har bir jinoyat uchun sodir etilgan jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab alohida alohida hisoblanadi.

Agarda jinoyat sodir etgan shaxs tergov yoki suddan yashirinsa:

Ya'ni shaxs jinoyat sodir etishda ayblanuvchi sifatida ishga jalb qilinganligi haqida xabardor bo'lgan kundan keyin tergov yoki suddan yashirinsa –

- Muddatning o'tishi to'xtatiladi;
- Muddat aybdor ushlangan yoki aybini bo'yniga olib arz qilgan kundan boshlab qaytadan tiklanadi;
- Agarda, shaxs jinoyat ishida ayblanuvchi sifatida jalb qilinganligi haqida xabardor bo'lmasdan turib, tergov yoki sudda qatnasha olmasa javobgarlikka tortish muddatlari o'tadi.

Agar og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etgan shaxs ushbu moddada nazarda tutilgan muddatlar o'tmasdan qasddan yangi jinoyat sodir etsa, muddatlarning o'tishi uziladi. Bunday holda javobgarlikka tortish muddatlari yangi jinoyat sodir etilgan kundan boshlab hisoblanadi. Qolgan hollarda, agar shaxs javobgarlikka tortish muddatlari o'tmasdan yangi jinoyat sodir etsa, bu muddatlar har bir jinoyatlar uchun alohida hisoblanadi.

Agar ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab **o'n yil**, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab **yigirma besh yil** o'tgan bo'lsa, shaxs javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Ushbu muddatlar Jinoyat kodeksining 150-moddasi (urushni targ'ib qilish, ya'ni bir mamlakatni ikkinchi mamlakatga nisbatan qo'zg'atish uchun turli shakildagi qarashlar), 157-moddasi (davlatga xoinlik qilish), 158-moddasi birinchi qismi (O'zbekiston Respublikasi prezidentining hayotiga tajavuz qilish), 159-moddasi uchinchi va to'rtinchi qismlari (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy tuzumiga takroran yoki xavfli retsivist tomonidan, uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlagan holda) tajavuz qilish, 160-modda (josuslik), 161-modda (qo'poruvchilik), 244.2-moddasi (diniy eksterimistik, separatistik, fundamentalistik, yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish) moddalariga nisbatan amal qilmaydi.

Bu masalada ilmiy qarashlarga to'xtaladigan bo'lsak, Sh.Niyozovaning ta'kidlashicha muddat o'tganligi uchun javobgarlikka tortmaslik shaxsni qayta jinoyat sodir etishini ta'minlaydi. Ushbu fikrlarga qo'shilamiz chunki ayrim shaxslarning jinoyat sodir etishi natijasida muayyan manfaatga ega bo'lishi, oson yo'l bilan pul topishi ularni qayta jinoyat sodir etishga undaydi [7].

Xitoylik olim Shan Yan qattiq jazo choralari qo'llab, jinoyat uchun o'zaro javobgarlik tizimi joriy etilganida odamlar o'zlarida qonun kuchini sinab ko'rishga jur'at qila olishmas edi deb ta'kidlagan [8]. Ushbu qarashlar muddat o'tishi bilan javobgarlikdan ozod qilishni yoqlamaydi, aksincha har bir jinoyat uchun jazo choralari kuchaytirish lozimligini ko'rsatadi.

Ammo Jinoyat Pratsessual kodeksining 84-moddasi [9] birinchi qismi birinchi bandiga ko'ra shaxsni javobgarlikka tortish muddati o'tgan bo'lsa – shaxsni jinoyat sodir etishda ayblilik masalasini hal qilmay turib jinoyat ishi tugallanishi lozimligi belgilangan.

Muddat o'tib ketganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga kiruvchi davlatlarning Jinoyat kodekslarida uchraydi. Ulardan ba'zilarini tahlil qilsak bo'ladi. **Belarus Respublikasi** Jinoyat kodeksida (83-modda), muddat o'tishi sodir etilgan jinoyat toifasiga qarab farqlanadi. Og'ir jinoyatlarni sodir etgan shaxslar uchun jinoiy javobgarlikka tortilishning uzoq muddat o'tishi belgilanadi. Jinoyat kodeksining 83-moddasining 1-qismiga [10] ko'ra jinoyat sodir etilgan kundan boshlab quyidagi muddatlar o'tgan bo'lsa, shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi: ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar uchun ikki yil, uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar uchun besh yil, og'ir jinoyatlar uchun o'n yil, o'ta og'ir jinoyatlar uchun o'n besh yil muddat belgilangan.

Armaniston Respublikasi Jinoyat kodeksiga [11] binoan quyidagi muddatlar javobgarlikka tortish muddatlari hisoblanadi: uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar uchun ikki yil, o'rtacha og'irlikdagi jinoyatlar uchun besh yil, og'ir jinoyatlar o'n yil, o'ta og'ir jinoyatlar uchun o'n besh yil muddat belgilangan.

Belarus Respublikasi va Armaniston Respublikasida javobgarlikka tortish muddatlari o'xshash bo'lib, faqat jinoyatlarning nomlanishida farq qiladi.

Qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish:

Javobgarlikdan ozod qilishning bu turi Jinoyat kodeksining 65-moddasida belgilangan bo'lib, ishni tergov qilish yoki sudda ko'rish vaqtida sharoit o'zgarganligi tufayli qilmish o'zining ijtimoiy xavfliligini yo'qotgan deb topilsa, jinoyat sodir etgan shaxs javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.

Ishni tergov qilish yoki sudda ko'rish vaqtida sharoit o'zgarganligi tufayli jinoyat sodir etgan shaxs ijtimoiy xavfliligini yo'qotgan deb topilsa, javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.

Qilmishning ijtimoiy xavflilik xususiyati yo'qolganligi sababli javobgarlikdan ozod qilish asoslariga quyidagilar kiradi:

- Sharoitning o'zgarganligi (obyektiv voqealikda sodir etilgan jinoyatning yangi ijtimoiy sharoitda ijtimoiy xavfliligini yo'qotishiga olib kelgan o'zgarish;

Shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishiga ikkita omil sabab bo'ladi:

- Sharoit (vaziyat) ning o'zgarishi – obyektiv omil
- Namunali xulqi, mehnatga yoki o'qishga bo'lgan halol munosabati – subyektiv omil;

Qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish masalasi Jinoyat kodeksi 168-moddasi Firibgarlik jinoyatini misol qilgan holda tahlil qilamiz. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining "Firibgarlikka oid ishlar bo'yicha" 17-sonli qarorining 18-bandida [12] yetkazilgan talon taroj miqdori bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravarigacha bo'lgan har bir holda, basharti sodir qilingan jinoyat ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar toifasiga kirsa, surishtiruv, tergov organlari va sudlar ayblanuvchi (sudlanuvchi) ning shaxsiga va moddiy zarar qoplanishiga oid ma'lumotlarni inobatga olgan holda Jinoyat kodeksi 65, 66, 70, 71-moddalarini qo'llash masalasini muhokama etishlari shartligi belgilangan. Demak firibgarlik natijasida yetkazilgan zarar miqdori bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravaridan oshsa javobgarlikdan ozod qilish masalasi ko'rib chiqilmas ekan.

Aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish:

Jinoyat kodeksining 66-moddasiga ko'ra, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs, agar u aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilgan, chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan, jinoyatni ochilishiga faol yordam bergan va keltirilgan zararni bartaraf qilgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.

Ushbu turdagi javobgarlikdan ozod qilishning obyektiv va subyektiv asoslari mavjud.

Sodir etilgan jinoyat ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni tashkil qilganligi, jinoyatning birinchi marta sodir etilganligi obyektiv asos hisoblanadi. Aybdor o'z aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilishi, chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi, jinoyatning ochilishiga faol yordam berganligi, jinoyat natijasida yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda bartaraf etganligi, jamiyat uchun xavflilik xususiyatini yo'qotganligi javobgarlikdan ozod qilishning subyektiv asosi hisoblanadi.

Javobgarlikdan ozod qilishning ushbu turi qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilishdan *ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoaytlar uchun qo'llanilishi* va *jinoyatni birinchi marta sodir qilgan shaxslar uchun qo'llanilishi* kabi jihatlari bilan farq qiladi.

Shaxs quyidagi hollarda birinchi marta jinoyat sodir etgan deb hisoblanadi:

- Oldin jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan hech qanday aybli ijtimoiy xavfli qilmishni sodir qilmagan bo'lsa;
- Agar shaxs ilgari ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan kam ahamiyatli qilmishni sodir etgan bo'lsa (JK 36-moddasi)
- Avvalgi sodir etgan jinoyati uchun javobgarlikka tortish muddati o'tib ketgan bo'lsa;
- Qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilingan bo'lsa (JK 65-modda)
- Tomonlarning yarashganligi bilan ish tugatilgan bo'lsa (JK 66-1-moddasi)
- Shaxs sodir qilgan jinoyati uchun amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilingan bo'lsa;
- Ilgari sodir qilgan jinoyati uchun sudlanganlik muddati tugatilgan yoki tegishli tartibda olib tashlangan holatlarda, shaxs birinchi marta jinoyat sodir qilgan deb topiladi.

Shuningdek, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar sodir etilgan hollarda shaxsning amalda pushaymon bo'lishiga Jinoyat kodeksi 66-moddasi qo'llanilmaydi. Bunday hollarda Jinoyat kodeksi 55-moddasi 1-qismi "a" bandiga asosan, shaxsning jinoyatni ochishda faol qatnashishi, aybini bo'yniga olish tog'risida arz qilishi, chin ko'ngildan pushaymonligi yoki jinoyatni ochishda, ya'ni jinoyatning boshqa ishtirokchilarini topishda, jinoyat ortidan topilgan mulkni qidirishdagi faol harakatlari, jabrlanuvchiga jinoyat sodir etilganidan keyin tibbiy yoki boshqa yordam berishi hamda yetkazilgan zararni qoplashga yo'naltirilgan boshqa harakatlarini qonun jazoni yengillashtirishga qilingan holatlar deb topadi. Aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilish, jinoyatni ochilishiga faol yordam berish va keltirilgan zararni bartaraf etish – bularning barchasi amalda pushaymon bo'lishning yagona shaklini hosil qiladi.

Yarashilganligi munosabi bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish:

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asosi sifatida jabrlanuvchi bilan yarashish, amaldagi Jinoyat kodeksida, birinchi marta, O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 29 avgustdagi 254-II-sonli «Jinoiy jazolarni liberallashtirilishi munosabati bilan Jinoyat, Jinoyat-protsessual va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuni [13] qabul qilinishi bilan paydo bo'ldi.

Agar shaxs og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar uchun sudlanganligi bo'lmay turib, JK 66-1 -moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatlardan birini sodir etib, aybini bo'yniga olgan, jabrlanuvchi bilan yarashgan va yetkazilgan zararni qoplagan bo'lsagina u yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sud Plenumining "Yarashuv to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida" gi qaroriga [14] binoan, yarashuv to'g'risidagi ariza har doim yozma shaklda taqdim etilib, unda jinoyat natijasida yetkazilgan zarar bartaraf etilganligi (yoki jabrlanuvchining zarardan vos kechganligi) va yarashilganligi munosabati bilan jinoyat ishini tugatish haqidagi iltimos ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Yarashuv to'g'risidagi ish yuritish masalasini qo'zg'atish huquqiga qonunda belgilangan tartibda jabrlanuvchi (fuqaroviy da'vogar) deb topilgan shaxs yoki uning qonuniy vakili egadir.

Ish bo'yicha bir gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va bir necha jabrlanuvchi bo'lgan hollar uchun ham qonunda aynan shunday talablar belgilangan. Jabrlanuvchilarning hatto birortasidan tegishli ariza bo'lmagan hollarda yarashuv to'g'risida ish yuritish mumkin emas. Bunday holda jinoyat ishi bo'yicha ish yuritish umumiy asoslarda olib boriladi.

Aybdorning va jabrlanuvchining yarashuvini qonuniy yoki ixtiyoriy akt deb hisoblash uchun ma'lum bir shartlar bo'lishi kerak:

- JK 66-1 -moddasida ko'rsatilgan jinoyatlardan birini sodir etish;
- aybiga iqror bo'lish;

- jabrlanuvchi bilan yarashish;
- yetkazilgan zararni qoplash;
- og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etishda sudlanganlikning yo'qligi.

Kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish:

Kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish Jinoyat kodeksi 67-moddasida ko'rsatilgan. Mazkur moddaning birinchi qismidagi qoidalarga binoan, jinoyat sodir etgan shaxs hukm chiqarilgunga qadar o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan va o'z harakatlarini boshqara olmaydigan darajada ruhiy kasallikka chalinib qolgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinadi. Qonun chiqaruvchi ruhiy kasallangan shaxsni javobgarlikdan ozod qilish asosini, o'zining qilmishlarini anglamaslik yoki ularni boshqara olmaslik bilan bog'laydi. Bunday turdagi shaxslarni tuzatish uchun va ularni jamiyatga qaytarish, shu bilan birga, ularning keyinchalik jinoiy xulqi va sog'lig'i yomonlashuvining oldini olish maqsadida tibbiy yordam ko'rsatish majburiyatini belgilab beradi. Bunday hollarda jinoyat qonuni ruhiy kasallikka chalingan shaxsga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llashga ruxsat beradi.

Xastalikka duchor bo'lgan shaxsning o'z harakatlarini boshqara olmasligi shundan iboratki, u **birinchidan**, o'zi va atrofida uchun xavf tug'diruvchi manbadir; **ikkinchidan**, u nochor ahvolda, ya'ni o'zining asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondira olmaydi; **uchinchidan**, shaxsga ruhiy yordam berilmasa uning holati og'irlashib, sog'lig'i yomonlashuviga olib kelishi mumkin.[15]

Shuningdek, kasalligiga ko'ra jinoiy javobgarlikdan ozod etilgan shaxs sog'ayganidan so'ng javobgarlikka tortiladi. Javobgarlikka tortish jarayonini tiklash uchun quyidagi shart-sharoitga e'tibor berish zarur:

- shaxsning sog'ayib ketishi;
- tibbiy yo'sindagi majburlov choralari va undan keyingi javobgarlikka tortish muddati o'tib ketmay, shu doirada bo'lishi shart. Sharxdan

Amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish:

Amnistiya (yun. amnestia – kechirish, gunohidan o'tish; amnistiya) – oliy davlat hokimiyati organining xususiy akti, ayrim shaxslarni jinoiy jazodan ozod qilish, jinoyat ishini bekor etish yoki jazoni yengillatish to'g'risidagi qarori. Amnistiya jinoyat va boshqa huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslarni jazodan to'la yoki qisman ozod etish, tayinlangan jazo turini yengilroq'i bilan almashtirish to'g'risida insonparvarlikni namoyish qiluvchi farmoyishdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish va O'zbekiston Respublikasi sudlari tomonidan hukm qilingan fuqarolarni afv etish vakolatiga ega¹ [16].

Amnistiya xalq o'rtasida „umumiy afv“ deb ham yuritiladi. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilinganidan beri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Amnistiya to'g'risidagi 11 ta farmoni e'lon qilingan (2001-yil 1- yanvargacha) [17].

Odatda amnistiya aktlari birinchi navbatda voyaga yetmaganlar, qariyalar, ayollar, avvalambor, homilador ayollarga shuningdek, jinoyatning xususiyati va

og'irlik darajasi, ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan, uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarga va og'ir jinoyatlarga nisbatan qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Ijroiya kodeksining 166-moddasida [18] Jazoni ijro etish muassasasining yoki jazoni ijro etuvchi boshqa organing ma'muriyati tegishli asos bo'lgan taqdirda, mahkumga nisbatan amnistiya aktini qo'llash to'g'risidagi iltimosnomani sudga kiritish haqida prokurorga taqdimnoma yuborishi shartligi belgilab qo'yilgan. Amnistiya aktini berish tartibi esa O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Protsessual kodeksining 536.1 moddasiga ko'ra mahkumni

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.05.2018 yildagi PF-5439- son

amnistiya aktiga asosan asosiy va ijro etilmagan qo‘shimcha jazodan to‘liq yoki qisman ozod qilish yoxud jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yoki unga tayinlangan jazoning o‘talmay qolgan qismini yengilroq jazo bilan almashtirish prokurorning iltimosnomasiga binoan mahkumning jazoni o‘tash joyidagi jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudining, hududiy harbiy sudning sudyasi tomonidan amalga oshirilishi belgilangan.

Oliy Sud Plenumining 2006-yil 22-dekabrda qabul qilingan 16-sonli qarorining uchinchi bandiga [19] ko‘ra Sudlar tomonidan amnistiya akti qo‘llanilishi natijasida quyidagi huquqiy oqibatlar kelib chiqishi mumkin:

- shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi;
- mahkum asosiy va ijro etilmagan qo‘shimcha jazodan ozod etilishi;
- mahkumga tayinlangan asosiy va ijro etilmagan qo‘shimcha jazoning qisqartirilishi (kamaytirilishi);
- mahkum jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod etilishi;
- mahkumga tayinlangan jazoning o‘talmagan qismi yengilroq‘i bilan almashtirilishi;
- jinoyat sodir etgan shaxsdan sudlanganlik muddatidan ilgari olib tashlanishi.

Jazodan ozod qilish, jazodan shartli – muddatidan ilgari ozod qilish, jazoni yengilroq jazo bilan almashtirish yoki jazo muddatini qisqartirishni nazarda tutadigan amnistiya aktini qo‘llash uchun ham sudlanuvchining (sudlangan, mahkum shaxsning) roziligi talab etilmaydi. Agar jinoyat ishi shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod etuvchi amnistiya aktiga zid ravishda qo‘zg‘atilgan bo‘lsa, hattoki asosiy jazo sifatidagi jazodan ozod qilish bilan yoki jazoni tayinlamagan holda chiqarilgan ayblov hukmi JPK 84-moddasi birinchi qismining ikkinchi bandi asosida bekor qilinishi hamda ish tugatilishi lozim.

1999 yil 22 iyulda qabul qilingan **Gruziya** Jinoyat kodeksining 4-bo‘lim XIII bobi «Javobgarlikdan ozod qilish» deb nomlanib, 68–70-moddalarni o‘z ichiga oladi. Gruziya Jinoyat kodeksining 701-moddasi «Tergov organlari bilan hamkorlikni amalga oshirilishi tufayli javobgarlikdan ozod qilish» deb nomlanadi. Bunda alohida hollarda og‘ir jinoyat sodir etishda aybdor shaxsning tergov organining mansabdor shaxsi bilan hamkorligi yoki uning bevosita ko‘magi natijasida mazkur jinoyatni ochish uchun mavjud sharoit yaratilsa, sud javobgarni to‘laligicha javobgarlikdan ozod qilishi mumkin [20].

Ushbu davlat amaliyotida shaxs jinoyat sodir etib bu jinoyatining ochilishiga ixtiyoriy ravishda yordamlashganligi, tergov organlariga amaliy yordam ko‘rsatganligi javobgarlikdan ozod qilinishi uchun asos sifatida olingan.

Ushbu ijobiy amaliyotdan kelib chiqib, jinoyat kodeksining javobgarlikdan ozod qilish bobiga “Tergov organlari bilan hamkorlikni amalga oshirganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish” degan moddani kiritish lozim. Gruziya amaliyotidagi ushbu qoida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 55-moddasi “a” bandida aybni bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilish, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lish yoki jinoyatni ochish uchun faol yordam berish jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida belgilangan.

Belarus Respublikasining 1999 yil 9 iyulda qabul qilingan Jinoyat kodeksi 12-bobi javobgarlikdan va jazodan ozod qilish dyeb nomlanadi. Uning 86-moddasi Shaxs ma‘muriy javobgarlikka tortilish munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish deb nomlanadi. Uning birinchi qismida belgilangan: birinchi marta ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan va uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatni sodir etgan va yetkazilgan zararni qoplagan shaxs, jinoiy yo‘l bilan olingan daromadni qaytargan yoki boshqa yo‘l bilan jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplagan shaxs agar uni tuzatish uchun ma‘muriy jazolarni qo‘llash kifoya bo‘lsa, ma‘muriy javobgarlikka tortish bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin [21].

2002 yil 18 aprelda qabul qilingan **Moldova** Jinoyat kodeksining 6-bobi Javobgarlikdan ozod qilish deb nomlanadi. Moldova Jinoyat kodeksining 53-moddasi «Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish» deb nomlanib, jinoyat tarkibiy belgilari bo‘lgan qilmish sodir etgan shaxslar jinoyat ishi tergovda ko‘rib chiqilayotgan paytda prokuror tomonidan yoki sud instansiyasi bosqichida quyidagi hollarda javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin:

1. voyaga yetmaganligi sababli;
2. huquqbuzarlik uchun javobgarlikka jalb etilganligi;
3. jinoyatni sodir etishdan ixtiyoriy qaytish;
4. aybiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lish;
5. sharoitning o‘zgarishi;
6. shartli ozod qilish;
7. jinoiy javobgarlikka tortish muddatining o‘tganligi.

Moldova Jinoyat kodeksi 54-moddasi “Voyaga yetmaganlarni javobgarlikdan ozod qilish” deb nomlanib, unga ko‘ra quyidagilar belgilangan: 18 yoshga to‘lmagan shaxs birincha marta kam ahamiyatga ega yoki o‘rtacha og‘irlikdagi jinoyatni sodir etgan shaxs, uni jinoiy javobgarlikka tortmasdan ham tuzatish mumkin deb belgilansa, javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.

Moldova Jinoyat kodeksining 55-moddasiga ko‘ra huquqbuzarlik uchun javobgarlikka jalb etilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish belgilangan. Unga ko‘ra:

- 1) birinchi marta kam ahamiyatga ega bo‘lgan jinoyat sodir etgan va o‘rtacha og‘ir jinoyat sodir etgan shaxs u aybini o‘z bo‘yniga olgan bo‘lsa, keltirilgan zararni qoplagan bo‘lsa, uning tuzalishi jinoiy javobgarlikka tortilmasligi mumkin deb belgilansa, jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.
- 2) ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan hollarda javobgarlikdan ozod qilingan shaxslar huquqbuzarlik uchun quyidagi jazolar qo‘llanilishi mumkin.
 - (1) 150 shartli o‘lchov birligi miqdorigacha bo‘lgan jarima
 - (2) 30 kungacha ma‘muriy qamoq.

Moldova Jinoyat kodeksining 59-moddasi “javobgarlikdan shartli ravishda ozod qilish” deb nomlanib, unga ko‘ra kam ahamiyatli va o‘rtacha og‘irlikdagi jinoyat sodir qilgan va o‘z aybini bo‘yniga olgan va jamiyat uchun xavf solmaydigan, uni jazosiz ham tuzatsa bo‘ladi deb belgilansa, javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin [22].

Ushbu amaliyotni tahlil qilgan holda, jinoyat kodeksiga tegishli o‘zgartirish kiritib, javobgarlikdan ozod qilingan shaxslar uchun ma‘muriy jazo choralarini qo‘llash bilan bog‘liq normalarni kiritish taklif etiladi. Ushbu ijobiy amaliyot Moldova jinoyat kodeksida huquqbuzarlik uchun javobgarlikka jalb etilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish deb nomlanib ma‘muriy qamoq va jarima kabilarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, ushbu norma Belarus Respublikasi jinoyat kodeksida shaxs ma‘muriy javobgarlikka tortilish munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish deb belgilab qo‘yilgan.

2001 yil 5 aprelda qabul qilingan 2001 yil 1 sentyabrdan kuchga kirgan **Ukraina** Jinoyat kodeksida o‘z aybiga amalda pushmon bo‘lganligi sababli bilan javobgarlikdan ozod qilish (45-modda), jabrlanuvchi bilan yarashilganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish (46-modda), shaxsni kafillikka berish munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish (47-modda), sharoit o‘zgarganligi sababli javobgarlikdan ozod qilish (48-modda), muddat o‘tganligi sababli javobgarlikdan ozod qilish (49-modda)larni o‘z ichiga olgan. Ukraina Jinoyat kodeksi 47-moddasi Shaxsni kafillikka berish munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish deb nomlanadi. Unga ko‘ra birinchi marotaba unchalik og‘ir bo‘lmagan va o‘rta og‘irlikdagi jinoyatni sodir qilgan shaxslar agar ular chin dildan aybiga iqror bo‘lsa, ularni tashkilot, idora yoki korxonaga jamoasining arizasi asosida kafillikka berilgan kundan bir yil davomida jamoaning ishonchini

oqlash, tarbiyaviy xarakterdagi choralardan bo‘yin tovlamaslik va jamaot tartibini buzmaslik sharti bilan kafillikka berilishi mumkin. Agar kafillikka berish shartlarini buzsa, sodir etgan jinoyati uchun jinoiy javobgarlikka tortiladi [23]

Ukraina davlatining ushbu ijobiy amaliyotidan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksiga “shaxsni kafillikka berish munosabti bilan javobgarlikdan ozod qilish” degan moddani kiritish lozim. Ukrainaning ushbu tajribasiga ko‘ra, birinchi marotaba unchalik og‘ir bo‘lmagan va o‘rta og‘irlikdagi jinoyatni sodir qilgan shaxslar agar ular chin dildan aybiga iqror bo‘lsa, ularni tashkilot, idora yoki korxonaga jamoasining arizasi asosida kafillikka berilgan kundan bir yil davomida jamoaning ishonchini oqlash, tarbiyaviy xarakterdagi choralardan bo‘yin tovlamaslik va jamaot tartibini buzmaslik sharti bilan kafillikka berilishi mumkin. Agar shaxs ushbu muddat davomida belgilangan qoidalarni buzsa jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Germaniya Federativ Respublikasining 1998 yil 13 noyabrda qabul qilingan Jinoyat kodeksi 24-moddasi “Ixtiyoriy qaytish” deb nomlanadi. Unda belgilangan: o‘z xohishiga ko‘ra huquqbuzarlikning keyingi ijro etilishidan voz kechgan yoki uning yakunlanishiga to‘sqinlik qiladigan shaxs bu urinish uchun javobgar bo‘lmaydi. Agar uning harakatidan qat’i nazar, huquqbuzarlik tugatilmagan bo‘lsa, u jinoyat tugashiga yo‘l qo‘ymaslik uchun ixtiyoriy va astoydil harakat qilgan bo‘lsa, ushbu shaxs javobgar bo‘lmaydi. Agar huquqbuzarlikda bir nechta shaxs ishtirok etsa, o‘z ixtiyori bilan uning tugatilishiga to‘sqinlik qilgan shaxs ushbu urinish uchun javobgar bo‘lmaydi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish bu shaxsning aybdorlik masalasi hal qilinmasdan turib uni sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishi uchun javob berishidan, harakatlari davlat tomonidan salbiy baholanishidan, aybdorga jinoiy huquqiy ta’sir choralari qo‘llanilishidan vos kechilishini anglatadi. Javobgarlikdan ozod qilish uchun asoslar ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilganda va jinoiy jazoga sazovar qilmish sodir etilganda vujudga keladi. Javobgarlikdan ozod qilishda xorijiy davlatlarni jinoyat qonunchiligini tahlil qiladigan bo‘lsak ularda bir qator yangiliklar va ijobiy tajriba mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, muddat o‘tganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilishda javobgarlikka tortish muddati har bir davlatda har hil ekanligini ko‘rishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksida javobgarlikka tortish muddati kamligi va jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik jihatdan nomlanishi bilan farq qiladi. Chunki Belarus Respublikasi jinoyat kodeksida ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlar uchun 2 yil, unchalik og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar uchun 5 yil, og‘ir jinoyatlar uchun – 10 yil, o‘ta og‘ir jinoyatlar uchun 15 yil belgilangan. Armaniston Respublikasi Jinoyat kodeksida javobgarlikka tortish muddatlari bir xil bo‘lsada jinoyatlarning nomlanishi farq qiladi. Unchalik og‘ir bo‘lmagan, o‘rtacha og‘irlikdagi, og‘ir, o‘ta og‘ir jinoyatlar hisoblanadi.

Shuningdek, Gruziya Respublikasining jinoyat qonunchiligida mavjud ijobiy amaliyot agar ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilgan shaxslar tergov organining mansabdor shaxsi bilan hamkorligi yoki uning bevosita ko‘magi natijasida mazkur jinoyatni ochish uchun mavjud sharoit yaratssa javobgarlikdan ozod qilinishi belgilangan.

Javobgarlikdan ozod qilishda eng ahamiyatli va ko‘p samarali amaliyot hisoblangan kafillikka berish Ukraina jinoyat kodeksida mavjud bo‘lib, bunda korxonaga yoki tashkilotlar ariza bilan ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilgan shaxsni kafillikka oladi. Bunday shaxslarga o‘z ishidan pushaymonligi, tarbiyaviy jihatdan o‘zgarganligi va jinoiy harakatlar sodir qilmasligini namoyish qilish uchun 1 yil muddat belgilanadi. Shu muddat davomida o‘zini namoyon qila olsa javobgarlikdan ozod qilinadi, aksincha bo‘lsa jinoiy javobgarlikka tortiladi. Ushbu ijobiy tajribani hamma davlat o‘zining jinoyat qonunchiligida mustahkamlashi kerak deb o‘ylayman. Bu yo‘l orqali jinoiy jazolar tizimida insonparvarlik tamoilini yanada mustahkamlash mumkin.

REFERENCES

1. Рустамбаев М.Х. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексига шарҳлар. Умумий қисм/М. Рустамбаев. - Тошкент: «Yuridik adabiyotlar publish», 2021. - 784 б.
2. Очилов Х.Р., Хайдаров Ш.Д., Шамсидинов З.З. «Жиноят ҳуқуқи» (Умумий қисм). Ўқув қўлланма – Т.: ТДЮУ нашриёти, 2021. 172 бет.
3. 03/21/716/0877-сон Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси / Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 05.10.2021 й., 03/21/719/0929-сон
4. Чупрова О.Н. Специальные основания освобождения от уголовной ответственности в отечественном и зарубежном уголовном праве. Юристь-Правоведь, 2014. №2 (63), стр. 89
5. Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 1. Jinoyat haqida ta’limot. Darslik. 2-nashr, to‘ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 441 bet.
6. Сверчков В.В. Концептуальные основы решения проблем освобождения от уголовной ответственности. Автореф.дисс... док.юрид.наук. – Нижний Новгород, 2008. –С.16.
7. Niyazova Sh. Muddatlarning o‘tganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish muammolari. Yu.f.n. olish uchun yozilgan diss... –Toshkent: TDYUI, 2010. – В.26
8. O‘zbekiston davlati va huquqi asoslari: 8-sinf uchun/Mualliflar guruhi; Mas’ul muharrirlar: — T., 2019 – 192 b.
9. <http://lex.uz/docs/-11146> O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi
10. Уголовный кодекс Республики Беларусь / Принят Палатой представителей 2 июня 1999 года. Одобрен Советом Республики 24 июня 1999 года / Предисловие проф. Б.В. Волженкина; Обзорная статья А.В.Баркова. – СПб.: Юридический центр Пресс, 2001. – С. 315.
11. Оскерко В. В. Истечение сроков давности как условие освобождения от уголовной ответственности по УК Республики Беларусь и УК Республики Армении: сравнительный анализ// Сборник научных статей студентов, магистрантов, аспирантов. – 2016. № 16. – С.107-110.
12. 17-сон 23.06.2023. Firibgarlikka oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida <https://lex.uz/en/docs/-6523582>
13. 254-II-сон 29.08.2001. Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida <https://lex.uz/docs/-87124?otherlang=1>
14. “Yarshuv to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida” gi oliy sud plenumining qarori <https://lex.uz/acts/-1453539>
15. Ўзбекистон Республикасининг 2000 йил 31 августдаги «Психиатрия ёрдами тўғрисида»ги 123–II-сон Қонуни, 27-модда // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2000 й., 7–8-сон, 215-модда.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.05.2018 yildagi PF-5439- son
17. O‘zbekiston davlat mustaqilligining e’lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati <https://www.savol-javob.com/ozbekiston-davlat-mustaqilligining-elon-qilinishi-va-uning-tarixiy-ahamiyati/>
18. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat Ijroiya kodeksi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.03.2019-y., 03/19/530/2769-son; 24.05.2019-y.,
19. 16-сон 22.12.2006. Sudlar tomonidan amnistiya aktlarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida <https://lex.uz/docs/-1591984>
20. Уголовный кодекс Грузии. / Науч. ред. З. К. Бигвава. – СПб.: Юридический центр Пресс, 2002. – С. 360.
21. Уголовный кодекс Республики Беларусь / Принят Палатой представителей 2 июня 1999 года. Одобрен Советом Республики 24 июня 1999 года / Предисловие проф. Б.В. Волженкина; Обзорная статья А.В.Баркова. – СПб.: Юридический центр Пресс, 2001. – С. 315.
22. Уголовный кодекс Республики Молдова. – СПб.: Юридический центр Пресс, 2002. – С.